



JADIDCHILIK FAOLIYATIDA TEATRNING O'RNI VA AHAMIYATI (MAHMUDXO'JA BEHBUDIY FAOLIYATI)

Gulboyev Husan Shokir og'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7805566>

ARTICLE INFO

Received: 28th March 2023

Accepted: 05th April 2023

Online: 06th April 2023

KEY WORDS

"Padarkush", dramaturgiya, tipik obraz, jadidchilik, ma'rifatparvar, yangi usul maktablari.

ABSTRACT

Ushbu maqola Turkiston milliy ozodlik harakatlari Jadidchilik faoliyati faoli Mahmudxo'ja Behbudiyning dramaturgiya sohasi hamda dramaturg sifatida yaratgan asarlarining yangi usul maktablari daralıkları bilan aloqadorligi haqidadir. Maqolada "Padarkush" dramasi badiiy estetik mohiyati, jadidchilik harakatlaridagi ahamiyati qalamga olingan.

Turkiston o'lkasining XIX asr oxirlariga kelib turli ijtimoiy jarayonlar ichida qolib ketishi hamda kishilik jamiyatimizda yuzaga kelgan tub o'zgarishlar ilm- fan sohalarining ham rivojlanishiga turtki berdi. Turkistonda ma'rifatparvarlik sohasining eng ilg'or vakillari: Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Sadridin Ayniy, Fayzullo Xo'jayev va boshqalar yangi usul maktablarining ochilishi, gazetchilik tarmoqlarining rivojlanishi, shu bilan birgalikda, teatr sohalarining ham rivojlanishida munosib hissa qo'shdilar.

XIX asrning 90-yillaridanoq Mirzalik faoliyati bilan shug'ullanuvchi Mahmudxo'ja Behbudiy o'z faoliyati bilan birgalikda, Turkiston o'lkasining milliy harakatlarida asos vazifasini o'tovchi yangi usul maktablarining ochilishida, xalqning ma'rifatini oshilishida katta hissa qo'shdi. Turkiston o'lasida amalga oshirilayotgan yangilik va islohotlarning o'sha vaqtdagi gazetalar: "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat" va boshqa gazetalarda yangi darsliklar, maqoallar muntazam ravishda berib borilgan. Shuni aytish mumkinki, M. Behbudiyning yangi usul maktabalari bilan birgalikda dramaturgiya sohasining rivojlanishida munosib hissasi, teatr va teatr truppalari ochilishida yuzaga keldi. Hayot va jamiyat munosabatlarining uzviy aloqadorligini ochib beruvchi dramaturgiya kabi yangi sohalar dunyo hamjamiyatining adabiy jarayonidan xabardor bo'lishga imkon yaratar edi. Yangi usul maktabalarining faqatgina ta'lim berishga yo'naltirilgan ekanligi bilan teatr sohalarining amaliy faoliyatidagi uslub, asarlarning shakliy ifodalanishi, kitobxon va tomoshabin munosabatini inobatga olish kabilar muhim sanalar edi. Shu munosabat bilan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi yaratilishi ham dunyo ta'lim standartlarining o'qish, bilim olish jabhalari kuzatish, tinglash, o'qib olish orqali amalga oshirilishini inobatga olib, teatr sahnasining ma'lum bir tasvirlar orqali kundalik hayotga ko'chishini kuzatish mumkin. M. Behbudiyning qoloqlik va jaholat ichra kun kechiruvchi xalqqa tanqidiy namuna sifatida teatr sahnalarida avom xalqning kundalik turmushi yaqqol tarzda ko'rsatib beriladi. Bu kabi sayi harakatlar



ham xalq ongiga o'qish, bilim olishning naqadar lozim ekanligini anglab olishlariga yordam beradi. "Padarkush" - o'zbek dramachiligining hamma yakdil etirof etgan birinchi namunasidir. Muxaxislar uni ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif "Milliy fojia" deya atagan, 3 parda, 4 manzarali drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo'n".[1] Muallif M. Behbudiyning o'zbek dramaturgiyasida birinchilardan bo'lib, bunday asarlar yaratishi orqali jamiyat hayotida kuzatilayotgan voqealar, obodonlik va bilimsizlikning ortidan kelib chiqishini "Milliy fojia", "Milliy tragediya" orqali yorqin tasvirlab bergan. Turkiston ahlining hamda butun o'lka ziyolilarining eng oliy maqsadi yangi ta'lim tizimlarini joriy etish, dunyoda amalga oshirilyotgan islohotlar bilan tanishish va qolaversa, milliy ozodlik harakatlarida ongli ravishda kurashuvchi yosh avlodni tarbiyalash, ularning savodini chiqarish o'sha davr uchun eng dolzarb masalalardan biri sifatida qaralgan edi. Shu jihatdan teatrlarning yaratilishi, dramaturgiya sohasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi. Ular:

- tipik obrazlar misolida;
- jamiyat hayotining sahnaga ko'chishi misolida;
- ijtimoiy muammolarga yechim misolida;
- jaholatdan qutilmoqning choralari namunalari sifatida;
- o'quv ko'nikmasi bo'lmagan kishilarning savodxonligini oshirish sifatida;
- oilaviy qadriyatlar, davlat va jamiyat istiqboliga yo'l sifatida va boshqalar.

Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" dramasi qahramonlari orqali ma'lum qonuniyatlarning ochib berilishini ta'minlaydi. Toshmurod, boy va ziyoli kabi obrazlari orqali qarama qarshilik munosabatlari ziyoli va boy o'rtasida yuzaga keladi. Toshmurodning tipik obraz sifatida jamiyatda yashab kelayotgan kishilarga namuna sifatida keltiradi. "Jadidchilik g'oylari erta bahorning shiddatli shamollari singari po'panak bosib, biljirab ketgan o'rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashlanadi. Xusuan, jadidlarimiz millatning yashamog', taraqqiy topmog'i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo'lmog'i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg'otishga alohida e'tibor berdilar".[2]

"Padarkush" dramasi orqali millat ahvolining ochib berilishi o'laroq, o'lkaga chet el ruhiyatining kirib kelishi, Sharqona madaniyat va mentalitetning yo'qolib borishi ma'lum bir obrazlar misolida ko'zga tashlanadi. Bunda asosan, Liza orqali milliy qadriyatlarga mansub bo'lgan, yot kpzqarashlarning yuzaga kelishi, kishilar axloqida yuzaga kelayotgan qusurlarning "Milliy fojia" namunasida yaratilgan ekanligini ko'rish mumkin. "Padarkush" dramasi g'oyaviy-ijtimoiyligi shundan iboratki, yangi usul maktablari, yangi ta'lim tizimining, jaholatga qarshi ma'rifatning ziyoli kishi orqali da'vad etilishi o'lka aholisining ijtimoiy holati personajlar namunasi orqali ochib beriladi. Ziyoli obrazi orqali jaholat botqog'ida qolib ketuvchi xalqqa yordam berishi, ularning savodli qilish, milliy ozodlik harakatlarini kuchaytirish, mustaqillikni qo'lga kiritish kabi g'oyalar ramziy ma'noda XIX asr oxiri XX asrning boshlarida jadidchilik harakati a'zolarining real tasviri yang'lig' ifodalalanadi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi 1911- yildan yaratilgandan so'ng ikki yil o'tib chop etiladi. Bunga saba shuki, "Padarkush" va shunga o'xshagan asarlarning chop etilishi oson bo'lmagan. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi "Borodino jangi va Rus xalqining Fransuzlar bosqinidan ozodlik bayrami" munosabatida chop etilgan. Dramada ayollar obrazining ochib berilishi misonida Liza va boyning xotini obrazlari o'rtasida farqli



jihatlilar ham o'sha davr nuqtai nazaridan yondashganda katta farqlilikni hamda, sharqona va g'arbcha dunyo qarashlarni keltirib chiqaradi. "Lizaning xatti-harakatlari, jamiyatdagi insonlar taqdiriga bevosita qay darajada ta'sir qilayotgani asarda namoyon bo'ladi. Ya'ni birgina ayol butun bir jamiyatga dushman bo'la oladi. Dramani o'qigan inson Lizaga nisbatan nafrat tuyg'usini tuyadi. Bir vaqtning o'zida Boybuchcha xonimga achinish hissi ham kitobxon qalbini egallab oladi. Bu esa adabiyotda qarshilantirish orqali kitobxon qalbida qolish san'atidan unumli foydalanilganligini ham anglatadi". [3]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 1914- yil 15- yanvarda sahna yuzini ko'rgan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi dramaturiya sohasidagi dastlabki asrarlardan sanaladi. Jadidchilik harakatlarining tub estetik g'oyasi Turkisyon o'lkasida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol qatnashish, yangi usul maktablari yordamida xalqni savodli qilish kabi g'oyalarni ilgari suradi. XIX asrning oxiri XX asrning dastlabki choragida savodsiz avom xalqning teatrlashtirilgan asarlar orqali xulosa chiqarishlarini yaxshi anglagan Behbudiy, teatrlar orqali xalqning ahvolini oyna misolida yoritib beradi. Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatparvar, adib sifatida yaratgan asarlari uning dramaturg sifatida yaratgana asarlarida ham yorqin aks etadi. 1914- yilda Ozorbayjonlik rejissor Aliasqar Asqarov boshchiligida teatrlashtirig'gan "Padarkush" dramasi o'sha kundan buyon xalq qalbidan joy olib kelmoqda.

References:

1. Abdurashidov Zaynobiddin. "Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy". Toshkent:. Yoshlar nashriyot uyi -2022
- 2.Yorbulova Dildora Shokir qizi Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi tahlili. Central Asian academic journal of scientific research - 2022
- 3.Xolikova Nodira Djoxongirovna, Tojiboyeva Gulshodaxon Abdumannob qizi Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi ayollar obrazi. Oriental Reanaisance: Innovative, educational, natural and social sciences -2021